

EKOLOGIK TUSDAGI FAVQULOTDA VAZIYATLARNING TASNIFI

Komilova Mohichehra Zafar qizi
Andijon Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda atrof muhitni Ekologik tUSDagi favqulotda vaziyatlari haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: ekologiya, yerosti, tuproq, toksinlar, favqulotda vaziyatlar, lokal, tabiiy, transchegara.

Abstract: In this thesis, brief information is given about environmental emergency situations.

Key words: ecology, underground, soil, toxins, emergencies, local, natural, transboundary.

Аннотация: В данной дипломной работе даются краткие сведения о чрезвычайных экологических ситуациях.

Ключевые слова: экология, подземелье, почва, токсины, чрезвычайные ситуации, местные, природные, трансграничные.

Favqulodda vaziyat - bu muayyan hududda o'zidan so'ng odamlarning qurbon bo'lishi, odamlar sog'lig'i yoki atrof-muhitga ziyon yetkazishi, kishilarning hayot faoliyatiga kattagina moddiy zarar hamda uning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, stixiyali ofat, epidemiyalar, epizootiyalar natijasida yuzaga kelgan holatdir.

Quruqlik (tuproq, yer osti)ning holati o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar: halokatli ko'chikilar, foydali qazilmalarni qazish chog'ida yer ostiga ishlov byerilishi va insonning boshqa faoliyati natijasida paydo bo'luvchi yer yuzasining o'pirilishi, siljishi, tuproq va yer ostining sanoat tufayli kelib chiqqan toksikantlar bilan ifloslanishi, og'ir metallar, neft mahsulotlari, shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida odamlarning sog'lig'i uchun xavf soluvchi konsentratsiyalarda qo'llaniladigan pestitsidlar va boshqa zaharli ximikatlar mavjudligi.

Atmosfyera (havo muhiti) tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar: havo muhitining quyidagi ingridiyentlar bilan ekstremal yuqori ifloslanishi, oltingugurt dioksid, dioksid va azotli oksid, uglyerodli oksid, dioksin, qurum, chang va odamlar sog'lig'iga xavf soluvchi konsentratsiyalarda antropogen tUSDagi boshqa zararli moddalar, katta ko'lamda kislotali zonalar hosil bo'lishi va ko'p miqdorda kislota chiqindilari yog'ilishi, radiatsiyaning yuqori darajasi.

Gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar: yer yuzasi va yer osti suvlarining sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi oqovalari: neft mahsulotlari, odamlarning zaharlanishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan tarkibida og'ir metallar, har xil zaharli ximikatlar bor bo'lgan chiqindilar va boshqa zararli moddalar bilan ekstremal yuqori darajada ifloslanishi, binolar, muhandislik kommunikatsiyalari va uy-joylarning emirilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan sizot suvlar darajasining oshishi, suv manbalari va suv olish joylarining zararli moddalar bilan ifloslanishi oqibatida ichimlik suvning keskin yetishmasligi. Favqulodda vaziyatlar ularning vujudga kelish sabablariga (manbalariga) ko'ra tasnif qilinadi va ular ushbu vaziyatlarda zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamlariga (hududlar chegaralariga) qarab lokal, mahalliy, respublika va transchegara, tabiiy va ekologik turlariga bo'linadi.

1. Lokal favqulodda vaziyatga favqulodda vaziyat natijasida 10 dan ortiq bo‘lmagan odam jabrlangan, yoxud 100 dan ortiq bo‘lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar Favqulodda vaziyat paydo bo‘lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiq bo‘lmaganni tashkil etadigan hamda Favqulodda vaziyat zonasi ishlab chiqarish ob’ekti yoki ijtimoiy maqsadli ob’ekt hududi tashqarisiga chiqmaydigan Favqulodda vaziyat tegishli bo‘ladi.

2. Mahalliy favqulodda vaziyatga favqulodda vaziyat natijasida 10 dan ortiq, biroq 500 dan ko‘p bo‘lmagan odam jabrlangan, yoxud 100 dan ortiq, biroq 500 dan ko‘p bo‘lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar Favqulodda vaziyat paydo bo‘lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiqni, biroq 0,5 million baravaridan ko‘p emas, tashkil etadigan hamda Favqulodda vaziyat zonasi aholi punkti, shahar, tuman, viloyat tashqarisiga chiqmaydigan favqulodda vaziyat tegishli bo‘ladi

3. Respublika favqulodda vaziyatiga favqulodda vaziyat natijasida 500 dan ortiq odam jabrlangan, yoxud 500 dan ortiq odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo bo‘lgan kunda eng kam oylik ish haqi miqdorining 0,5 million baravaridan ortiqni tashkil etadigan hamda favqulodda vaziyat zonasi viloyat tashqarisiga chiqadigan favqulodda vaziyat tegishli bo‘ladi.

4. Transchegara favqulodda vaziyatga oqibatlari mamlakat tashqarisiga chiqadigan, yoxud favqulodda vaziyat chet elda yuz byergan va O‘zbekiston hududiga daxl qiladigan favqulodda vaziyat tegishli bo‘ladi.

5. Tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarga (jala, do‘l, tuproq, yer osti va suvning neft mahsulotlari, og‘ir metallar, pestitsidlar va boshqa zaharli ximikatlar bilan ifloslanishi, atmosferaning yo‘l qo‘yiladigan chegaraviy konsentratsiyadan ortiq zararli ingredientlar bilan ekstremal ifloslanishi va boshqalar) qarshi muqobil harakat qilish maqsadida mazkur Nizomda nazarda tutilmagan miqdor ko‘rsatkichlar favqulodda vaziyatlarning odamlarning hayoti, sog‘lig‘iga va atrof muhitga ta’sirining aniq darajasiga qarab atrof tabiiy muhitning holatini kuzatuvchi va nazorat qiluvchi vazirliklar va idoralar hamda O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining tegishli rahbar organlari tomonidan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Yormatov G‘.YO. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Aloqachi”, 2009 yil. – 348 b.

2.Yormatov G‘. YO. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. -T.: 2005.

3. I. Tojiev, M. X.Nigmatov "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi" Darslik.-T.: Iqtisod-moliya. 2011. -260 b.

4. M. X. Nigmatov I.Tojiev, Ilxomov «Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi» O‘quv qo‘llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2005. -195 b.

5.H.E.G‘oyipov Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Yangi asr avlodi”